

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**RAQAMLASHTIRISH – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM
“DRAYVERI” SIFATIDA**

Xasanova G. Dj.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.n.

gulrux-xasanova1971@mail.ru

**ЦИФРОВИЗАЦИЯ - КАК ВАЖНЫЙ «ДРАЙВЕР» РАЗВИТИЯ
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

Хасанова Г. Дж.

Бухарский инженерно-технологический институт, к.э.н., доцент кафедры

«Экономика», г. Бухара. gulrux-xasanova1971@mail.ru

**DIGITIZATION - AS AN IMPORTANT “DRIVER” OF DEVELOPMENT
NEW UZBEKISTAN**

KHasanova G. Dj.

Bukhara Institute of Engineering and Technology, associate professor of the

"Economics" department, candidate of economic sciences, Bukhara

gulrux-xasanova1971@mail.ru

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog’liqni saqlash va qishloq xo’jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko’zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida 05.10.2020 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6079-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq Raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi: - optik tolali aloqa liniyalari, xalqaro kommunikatsiya markazlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali mintaqaviy va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarining, O‘zbekiston Respublikasining chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari bilan tranzit aloqalarining o’tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirib borish; - taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, rezervlash, tizimlarning ishonchliligini

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

ta'minlash, shuningdek, aholi punktlari va ijtimoiy ob'ektlarni keng polosali xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash uchun ma'lumotlar uzatish tarmog'ini kengaytirish; - mobil va yo'ldosh aloqa operatorlarining investitsion faolligini rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish; - mobil aloqa tarmog'ini 4G va 5G texnologiyasi bo'yicha rivojlantirish, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarini beshinchi avlod aloqa tarmog'i bilan bosqichma-bosqich qamrab olish; - barcha aholi punktlari va ijtimoiy ob'ektlarni optik va mobil keng polosali xizmatlardan foydalanish tarmoqlari bilan qamrab olish; - avtomagistral va temir yo'llari, turistik ob'ektlarni mobil aloqa tarmoqlari bilan qoplashni ta'minlash; - internet jahon axborot tarmog'iga ulanish tariflarini takomillashtirish va optimallashtirish; - geografik joylashuvidan qat'iy nazar, fuqarolarning o'sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish; - iste'molchilarga televizion signalni uzatish, er usti televizion eshittirish, kabel televideniesi, IP-televidenie, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda teleradioeshittirish, televizion va radio xizmatlarining barcha turlarini to'liq qamrab olgan holda raqamli eshittirishni takomillashtirish; - "bulutli" hisoblashlar asosida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta'minlash; - davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida "xizmat sifatida dasturiy ta'minot", "xizmat sifatida platforma", "xizmat sifatida infratuzilma" texnologiyalarini keng joriy etish; - shahar infratuzilmasini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali transport logistikasi, shahar infratuzilmasi, shahar muhitining sifati, shahar rivojlanishini boshqarish samaradorligi, jamoat, biznes va yashash joylari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun "aqlli" va "xavfsiz" shahar loyihalarini izchil amalga oshirish; - keng polosali ulanishni rivojlantirishning texnologik asosi iste'molchilarga asosiy va qo'shimcha xizmatlarni, shu jumladan texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish xizmatlarini, aholining hayotini qo'llab-quvvatlashda aqlli tizimlarni joriy etishning bir qismi sifatida individual infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga bosqichma-bosqich kirishni ta'minlash uchun yagona infratuzilma yordamida multiservis tarmoqlarini rivojlantirish; - mavjud aloqa (simsiz va optik), simli va simsiz aloqa texnologiyalari va tizimlari, shuningdek, yangi geografik axborot va navigatsiya tizimlarining samaradorligini oshirish yo'llarini o'z ichiga olgan aloqa va navigatsiya texnologiyalarini rivojlantirish; - aloqa operatorlari o'rtasida raqobatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va hokazolar.

SHuning bilan birgalikda, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Xususan, mamlakatimiz elektron hukumatining asosiy tizimi – YAgona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) ishga tushirilgach, ushbu sohada, shuningdek, davlat boshqaruvida yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirishda salmoqli yutuqlarga

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

erishildi. Natijada, o'tgan yillar mobaynida davlat xizmatlarining 56 foizi my.gov.uz orqali taqdim etilgan bo'lsa, mazkur elektron hukumat platformasida davlat xizmatlari soni 307ga etdi hamda elektron davlat xizmatlaridan 1,3 milliondan ortiq fuqaro foydalangan. SHu bilan birga, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning umumiy soni esa joriy yil boshida 27,2 million etgan.

Bundan tashqari, o'tgan davr mobaynida Respublikaning AKT tizimlari va raqamli infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida sohaga katta miqdordagi investitsiyalar jalb qilindi. Natijada, O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda O'zbekistonda axborot va aloqa sohasida 21,1 trln so'm qo'shilgan qiymat yaratilgan bo'lib, bu yalpi ichki mahsulot tarkibida 2,1 % ni tashkil etgan. YAlpi ichki mahsulot tarkibida axborot va aloqa sohasining ulushi o'tgan yilga nisbatan 0,2 % ga oshgan. Axborot va aloqa sohasining yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida (8,6 %) kuzatilgan.

SHuningdek, O'zbekistonda IT-parklar tashkil etilgandan buyon sohadagi eksport hajmi hajmi 50 barobar oshdi va 46 mln. AQSH dollariga etdi. Parkning doimiy rezidentlari soni 147 tadan 500 taga ko'paydi, 300 dan ortiq yangi kompaniyalar ochildi hamda 8500 ta yuqori haq to'lanadigan ish o'rinlari yaratildi. Hozirgi kunda IT-parklarda 11 mingdan ziyod yoshlar faoliyat yuritmoqda.

“Raqamli O'zbekiston – 2030” Strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim shartlari sohaning moliyaviy ta'minoti va aholining raqamli savodxonligini oshirishdan iborat. SHuningdek, “Raqamli O'zbekiston – 2030” boshqa milliy strategik hujjatlar va dasturlarda nazarda tutilgan vazifalar, xususan, 2030 yilgacha bo'lgan davrda BMT barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha milliy vazifalar hamda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Taraqqiyot strategiyasida ham muhim sohalarni raqamlashtirilishga alohida e'tibor qaratilib, davlat xizmatlari, sud tizimi, huquqni muhofaza qilish organlari, yo'l harakati boshqaruvi tizimi, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy xizmatlar, bank va qishloq xo'jaligi tarmoqlari va milliy iqtisodiyotning boshqa asosiy sohalariga yangi texnologiyalarni joriy qilish belgilangan.

Xususan, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga etkazish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va ularning 20 foizini xususiy sektorga o'tkazish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda shaxsni identifikatsiya qilishning Mobile ID tizimini joriy qilish, shuningdek, “Fuqarolarning raqamli pasporti” va “Raqamli idora” loyihalarini amalga oshirish kabi bir qator vazifalar ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish rejalashtirilmoqda. SHu munosabat bilan, raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, 2026 yil oxiriga qadar uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish, bunda

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSH dollariga etkazish, shuningdek, iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalorida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 70 foizgacha oshirish belgilangan. Bundan tashqari, shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va “Aqlli shahar” konsepsiyasi doirasida rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

So‘nggi davr ichida O‘zbekiston AKTni rivojlantirish va raqamlashtirish sohasida, ayniqsa, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishda yuqori natijalarga erishdi. SHu bilan birga, Janubiy Koreya, Rossiya, Estoniya, Xitoy bilan davom etayotgan hamkorlik bilan bir qatorda, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH, Singapur, YAponiya kabi texnologik jihatdan rivojlangan davlatlarni mamlakatning IT-sektoriga jalb qilish, xalqaro hamkorlarning geografiyasini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Raqamli ekotizimga, IT infratuzilmasiga va elektron xizmatlarga investitsiyalar milliy iqtisodiyotni yanada modernizatsiya qilish va barcha sohalarda inklyuziv o‘shishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030”strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘grisidagi PF-60-sonli Farmoni/
3. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari.